SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5I82025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 8 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

## BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

## TAHRIR HAY’ATI:

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg‘ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 8-son (Avgust, 2025). - 342 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Baxranov Sherzod*
O‘ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O‘RNI ........ 10-16

*Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna*
MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI ........ 17-21

*Sattarova Marhabo Mamatovna*
O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA’SIRI ........ 22-30

*Raxmatov Mirjon*
BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN ........ 31-38

*To‘xtasinov Mira’zam*
SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI ........ 39-42

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kuliboyev Azamat Shonazarovich*
DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 43-48

*Azgarov Abdumutalib*
INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO‘LLANILISHI HOLATI TAHLILI ........ 49-56

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*
IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE ........ 57-60

*Otabekov Javdod*
GO‘SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGI” IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI ........ 61-68

*Navruzov Dilshod Ismatullayevich*
AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH ........ 69-74

*Uralov Temur Boxodir o‘g‘li*
ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 75-81

*Samandarov Og‘abek*
ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI ........ 82-86

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yuldashev Rustam Daniyorovich*
YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI ........ 87-93

*Adilov Zafar Yunusovich*
ATROF-MUHIT TA’LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO‘L ........ 94-98

*Berdikulova Surayyo Aslamovna*
IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME’YORLARINING SHAKLLANISHI ........ 99-104

*Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*
ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA’LIM MADANIYATI ........ 105-113

*Yarbaev Xasan Xazratqulovich*
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASH: MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL ........ 114-118

*Maxsudjonov Kamronjon*
MA’RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA’NAVIY MADANIYATIGA TA’SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI ........ 119-123

*Qo‘chqarov Oybek G‘ulomovich*
INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA’LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV ........ 124-128

*Otaqulov Elyor Madiyorovich*
EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI ........ 129-136

*Mamatqulov Rashid Pazilbekovich*
TUSHUNCHA USTIDA MANTIQIY AMALLAR ........ 137-141

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Niyazov Ravshan Turakulovich*
SKOTT TUROVNING “AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI” ROMANIDA DIALOGLAR XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI ........ 142-148

*Yunusova Xilola Ravshan qizi*
KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O‘ZBEK TILIDAGI “V+(I)B YURA TURMOQ” ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA ........ 149-154

*Absalamova Gulmira Sharifovna*
LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG‘AVIY TERMINLARNING NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG‘ATI ASOSIDA ........ 155-158

*Dadajanova Aziza Karimullayevna*
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION: A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE ........ 159-170

*Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna*
YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI RAMZIY MA’NOLAR: “MOMOTARO” (SHAFTOLIDAN TUG‘ILGAN BOLA) ERTAGI MISOLIDA ........ 171-175

*Babajanova Iqbol Salomaddinovna*
SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI ........ 176-180

*To'xtayeva Sarvinoz*
DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI ...................... 181-184

*Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi*
TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM
MANBALARI QIYOSI ............................................................................................ 185-189

*Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna*
CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING
IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY ..... 190-195

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*O'rinboyev Rustamjon*
A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES
OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA ........................................................................ 196-206

*Uzakova Go'zal Sharipovna*
YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI .................................................... 207-212

*G'ofurova Dilafruz*
AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING
KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR ................................ 213-218

*Komilov Avazbek Bokijonovich*
PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI
BARTARAF ETISH MASALALARI ........................................................................... 219-223

*Juraeva Asal*
OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN ....................................... 224-228

*Ходжаева Ширин*
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ
СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ ......... 229-239

*Imomniyozov Doniyorbek*
SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK:
IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR ............................................ 240-250

*Asadov Shahriddin Faxriddinovich*
XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI:
SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN ......................................................... 251-254

*Суннатиллаева Сарвиноз*
АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И
КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА ........................... 255-262

*Anarbayev Eldor*
KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ..................... 263-269

*Ibrohimov Azimjon*
KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI:
XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK ......................................................... 270-278

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Qurbonov G'ulomjon G'afurovich*
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI,
SHAKLLARI VA VOSITALARI ................................................................................. 279-285

*Safarova Nigora Nasilloyevna*
TRANSFOMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI .................................. 286-293

*Muxammadjonov Muslimbek*
OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ... 294-302

*Khabibullaeva Dilshoda*
FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN .................................................................................................. 303-309

*Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi*
INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI .............................................................................. 310-314

*Hamidov Sherali Shirinovich*
BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI .......................................................................... 315-320

*Sattoriy Shohruh*
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .................................. 321-325

*Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna*
TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI ..................................................................... 326-331

*Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna*
"NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI ..................................................... 332-336

*Karimov Akramjon Zaynobidinovich*
TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT ................................................................. 337-341

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 20 July 2025
**Accepted:** 5 August 2025
**Published:** 10 August 2025

*Article / Original Paper*

# THE SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THE IMPACT OF THE EDUCATIONAL INSTITUTION SYSTEM ON THE SPIRITUAL CULTURE OF THE INDIVIDUAL

**Maxsudjonov Kamronjon**
Head of the Department for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work
Karshi International University

**Abstract.** The article describes epistemology, its types, scientific views on the evolution of culture and their development. It is investigated that biological evolution has formed the physiological and moral character of man and gave impetus to cultural evolution, which adapted it to life in man, and that this is preserved genetically.

**Keywords:** evolutionary epistemology, three theories of Popper, struggle for existence, interdisciplinary approach, scientific evolutionary epistemology, information, genetic and cultural epistemology.

# MA’RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA’NAVIY MADANIYATIGA TA’SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

**Maxsudjonov Kamronjon Maxsudjonovich**
Qarshi xalqaro universiteti
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar boshqarma boshlig‘i
E-mail: kmaqsudjonov@gmail.com

**Annotatsiya.** Globallashuv sharoitida shaxs ma’naviy madaniyatining shakllanishida ma’rifiy tashkilotlarning falsafiy o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot aksiologik va sotsial-falsafiy yondashuvlarga asoslangan. Xulosa tariqasida, ma’rifiy muassasalar ijtimoiy ong va mas’uliyatni shakllantiruvchi strategik institut sifatida asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** shaxs ma’naviy madaniyati, ma’rifiy tashkilotlar, globallashuv, ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar, aksiologiya, tarbiya muhiti.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N18

**Kirish.** Bugungi kunda globallashuv insoniyat tafakkurini nafaqat ilmiy-texnik taraqqiyotga, balki mavjudlik mohiyati (ontologiya) va qadriyatlar tizimi (aksiologiya)ga oid murakkab savollarga yuz tutishga majbur qilmoqda. Jamiyatda shakllanayotgan axborot oqimi va madaniy gibridlik shaxs ma’naviy barqarorligini sinovdan o‘tkazmoqda. Ayniqsa, zamonaviy falsafa sohasida ijtimoiy ong va axloqiy pozitsiyaning izchil shakllanishi ustuvor ilmiy-analitik yo‘nalishlardan biri sifatida baholanmoqda. Ushbu kontekstda ma’naviy madaniyat faqat shaxsiy kamolot omili bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy taraqqiyotning asosiy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxs ma’naviy madaniyati, odatda, axloqiy normalarga muvofiq fikrlash, qadriyatlarga tayanib yashash, ijtimoiy ongda o‘zini anglash va jamiyat oldidagi mas’uliyatni sezish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu holat insonning nafaqat ichki olami, balki tashqi ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari orqali namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham shaxsning bu jihatini

shakllantirishda ta’lim va targ‘ibot bilan shug‘ullanuvchi institutlarning jamiyatdagi aksiologik muvozanatni ta’minlashdagi funksiyasi kompleks ilmiy tahlil doirasida o‘rganilishi lozim. O‘zbekiston tajribasida mustaqillikdan so‘ng shakllangan davlat siyosati aynan shaxsning ma’naviy yetukligini rivojlantirishga qaratildi. “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tuzilmalar orqali olib borilayotgan tizimli ishlar shaxs ma’naviyati va ijtimoiy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan strategik mexanizmlarni shakllantirmoqda. Prezident farmonlari va qarorlarida (xususan, PQ–5040-sonli hujjatda) milliy g‘oya asosida ong va tafakkur makonini yangilash g‘oyasi ilgari surilgan. Bularning barchasi ma’rifiy tashkilotlar ijtimoiy muhitda shaxs ma’naviyatini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi[1, 2-b.].

Shu bilan birga, bugungi kunda globallashuv jarayonining axborot ekspansiyasi, madaniy universalizm va individualizm kuchayishi fonida shaxs axloqiy izolyatsiyaga uchrashi, qadriyatlardan uzoqlashishi mumkinligi ham kuzatilmoqda. G‘arb ilmiy doiralarida bu holat *“value disintegration”* (qadriyatlarning parokandaligi) yoki *“moral vacuum”* deb ta’riflanmoqda[2, 45-b.]. O‘zbek olimlari bu tahdidga nisbatan “ma’naviy bo‘shliq” atamasini ishlatmoqda va unga qarshi ma’rifiy institutlar vositasida ijtimoiy ongni qayta shakllantirish zaruratini asoslamoqda[3, 17-b.].

Shu bois, ushbu tadqiqotda maqsad — ma’rifiy tashkilotlarning shaxs ma’naviy madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni va ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini tahlil qilishdir. Maqolada bu masala faqat ma’rifat targ‘iboti nuqtai nazaridan emas, balki falsafiy, aksiologik va madaniy yondashuvlar asosida ko‘rib chiqiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Globallashuv, shaxs ma’naviyati va ma’rifiy tashkilotlarning ijtimoiy-falsafiy o‘rni bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu muammo turli nuqtai nazarlardan tadqiq qilingan, biroq integrallashgan holda aks ettirilishi yetarli darajada chuqurlashmagan.

Shaxs ma’naviy madaniyati tushunchasi falsafa, pedagogika, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlarida turlicha talqin qilingan. Jumladan, G‘ofurov A. o‘zining “Shaxs ma’naviy madaniyati va jamiyat” nomli asarida bu tushunchani shaxs dunyoqarashlar tizimi, qadriyatlar iyerarxiyasi va ma’rifiy ong darajasining sintezlangan ko‘rinishi sifatida tavsiflaydi[4, 12-15-b.].

Mahmudov H. esa ma’naviy madaniyatni shaxsning “ijtimoiy kodga bo‘ysunish ixtiyori” deb ataydi va bu bilan uni jamiyatdagi axloqiy normalar bilan uyg‘unlikda ko‘radi[5, 47-b.].

Adabiy manbalarda ma’rifiy tashkilotlar – fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat kengashlari, diniy-ma’rifiy markazlar – shaxs va jamiyat o‘rtasidagi axborot-ko‘prik, axloqiy filtr hamda qadriyatlarni tashuvchilik funksiyalarini bajaruvchi institutlar sifatida ta’riflanadi.

Masalan, Hasanov B.ning ta’kidlashicha, bu tashkilotlar “g‘oyaviy bo‘shliq” ni to‘ldirishda ijtimoiy-kommunikativ platformani ta’minlaydi[6, №4-son]. Xususan, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlari faoliyati bu borada model darajasidagi tajriba sifatida ko‘rilmoqda[7].

Jahon miqyosida olib borilgan falsafiy tadqiqotlarda shaxs ma’naviyati va globallashuv o‘rtasidagi murakkab munosabatlar ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Huntington va Fukuyama kabi g‘arb olimlari bu jarayonda **“madaniyatlar to‘qnashuvi” va “ma’naviy nevroz”** holatlarini ilgari surgan[8, 112-b.].

Oʻzbek olimlari orasida Yusupov I. va Sobirov D. bu tahdidni inkor etmaydi, lekin uni ijobiy integratsiya orqali nazorat qilish mumkinligini taʼkidlaydi[9, 91-b.]. Aynan maʼrifiy tashkilotlar bu oʻzaro ijtimoiy himoya mexanizmini taʼminlovchi vosita sifatida qaralmoqda.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda qabul qilingan konseptual hujjatlar (masalan, PQ–5040-sonli Prezident qarori) asosida “milliy qadriyatlar asosida axloqiy immunitet” tushunchasi ilgari surildi[10, 2-b.]. Bu esa shaxs maʼnaviy madaniyatini nafaqat taʼlim tizimi orqali, balki ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy media, jamoatchilik faollari orqali ham shakllantirishni taqozo etmoqda[11].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni koʻrsatmoqdaki, shaxs maʼnaviy madaniyati masalasi bugungi globallashuv davrida **ijtimoiy-falsafiy va aksiologik yondashuvlar asosida tahlil qilinmasa**, u shunchaki sotsiologik yoki psixologik muammo darajasida qoladi. Tadqiqotda esa bu koʻlam falsafa nuqtai nazaridan chuqurlashtirilmoqda.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda shaxs maʼnaviy madaniyatining shakllanishi jarayonida maʼrifiy tashkilotlar tizimining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosi fanlararo yondashuvga tayanib, falsafa, ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya va pedagogikaning kesishgan nuqtalaridan foydalanishga qaratildi. Ushbu yondashuv orqali shaxsning axloqiy va madaniy identiteti maʼnaviy qadriyatlar tizimi bilan oʻzaro bogʻliq tarzda tahlil qilindi.

Tadqiqot quyidagi falsafiy yondashuvlarga asoslandi:

**Aksiologik yondashuv** – shaxs tomonidan maʼnaviy qadriyatlarning qabul qilinishi va ularning ongli ijtimoiy xulqdagi ifodalanishi mexanizmlarini tahlil qilishga xizmat qildi.

**Ontologik yondashuv** – shaxsning mavjudligi va uning maʼnaviy jihatdan tarkib topishi jarayonini ijtimoiy muhit bilan bogʻliq holda tahlil etishga imkon berdi.

**Fenomenologik yondashuv** – shaxsning maʼnaviy tajribasini ichki idrok, axloqiy sezgi va ijtimoiy tajriba orqali anglash imkonini berdi.

**Sotsial-falsafiy yondashuv** – ijtimoiy institutlarning shaxsga koʻrsatadigan aksial taʼsirini tushuntirish uchun qoʻllanildi.

Bu yondashuvlar yordamida maʼnaviy madaniyat ijtimoiy taraqqiyot va individual ong oʻrtasidagi dinamik bogʻliqlikda koʻrib chiqildi.

**Natija va tahlil.** Ushbu tadqiqot doirasida maʼnaviy madaniyatning shaxs hayotidagi oʻrni, u qanday shakllanishi va bu jarayonda maʼrifiy tashkilotlarning tutgan roli chuqur tahlil qilindi. Shaxsning maʼnaviy madaniyati ijtimoiy qadriyatlar, milliy oʻzlik, axloqiy mezonlar va ongli masʼuliyat asosida qaror topadi. Bu komponentlar esa aynan taʼlim va tarbiya institutlari orqali shakllantiriladi [12, 45-b.].

Tadqiqot natijalariga koʻra, Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan maʼrifiy tashkilotlar (maktablar, oliy oʻquv yurtlari, maʼnaviyat markazlari, diniy-maʼrifiy tashkilotlar va yoshlar bilan ishlovchi nodavlat tashkilotlar) shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishda ijtimoiy-filtr vazifasini oʻtaydi. Ularning faoliyati orqali axloqiy ong, madaniy identitet va ijtimoiy masʼuliyat kabi muhim ijtimoiy xususiyatlar rivojlanadi [13, 2-b.].

Misol uchun, 2022-yilda Oʻzbekiston boʻylab 2 000 nafardan ortiq yoshlar orasida oʻtkazilgan soʻrov natijalariga koʻra, respondentlarning 73 foizi shaxsiy qadriyatlar tizimi aynan taʼlim muassasasida shakllanganini bildirgan. 58 foizi esa birinchi marotaba axloqiy-meʼyoriy tushunchalar bilan aynan maktabda tanishganini taʼkidlagan [14, 8-b.]. Bu esa taʼlim tizimining nafaqat bilim, balki maʼnaviyat shakllanuvchisi sifatidagi funksiyasini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, shaxsda barqaror maʼnaviy madaniyat shakllanishi uchun uchta asosiy omil muhim ahamiyat kasb etadi:

*Birinchidan.* Uzoq muddatli va izchil tarbiya muhiti – bu shaxsda axloqiy xulq va qadriyatlar tizimining shakllanishini taʼminlaydi. Barqaror tarbiya muhiti boʻlmasa, shaxs ijtimoiy-axloqiy jihatdan beqaror boʻlib qoladi va bu jamiyatdagi qadriyatlar uzviyligini buzadi;

*Ikkinchidan.* Barqaror qadriyatlar tizimini uzluksiz targʻib qiluvchi maʼrifiy makon – bu makon shaxsni mustahkam gʻoyaviy pozitsiyaga ega qilishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Ular doimiy ravishda maʼnaviy-meʼyoriy bilimlarni singdirib boradi va shaxsda qadriyatlar zanjiri uzilmasligiga xizmat qiladi;

*Uchinchidan.* Ongli, madaniy va aksial yondashuv asosida faoliyat yurituvchi tashkilotlar – bunday tashkilotlar shaxsda ijtimoiy masʼuliyat, axloqiy tanlov, tolerantlik, madaniy identitet kabi kompleks fazilatlarni uygʻotadi va ularni ongli ravishda shakllantiradi.

Maʼrifiy tashkilotlar bunday omillarni birlashtirgan holda taʼsirchan tarbiya maydoniga aylanadi. Misol tariqasida, Oʻzbekiston Milliy universiteti huzuridagi "Maʼnaviyat va maʼrifat markazi"ning 2021–2023-yillardagi hisobotlari asosida aniqlanishicha, ushbu markaz tomonidan oʻtkazilgan 450 dan ortiq tadbirlar orqali 15 mingdan ziyod talabaga milliy gʻoyalar, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot va fuqarolik masʼuliyati mavzulari boʻyicha maʼnaviy-maʼrifiy bilimlar singdirilgan [15, 11-b.].

Qolaversa, xorijiy tajriba ham tahlil qilindi. Turkiyada 2010-yildan boshlab "Meneviy değerler eğitimi" (Maʼnaviy qadriyatlar tarbiyasi) dasturi asosida maktab darslariga diniy-axloqiy komponentlar integratsiya qilinmoqda. Malayziyada esa "Islamic Value-based Education" modeli orqali yoshlarning axloqiy jihatdan shakllanishi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida qaraladi. AQShda esa "Character Education" dasturlari orqali yoshlar orasida ijtimoiy javobgarlik, halollik, adolat va vatanparvarlik kabi qadriyatlar ijtimoiylashtirilmoqda [16, 35-b.][17, 9-b.].

Bu mamlakatlar tajribasi Oʻzbekistonda olib borilayotgan islohotlar bilan maʼno va maqsad jihatidan uygʻun boʻlib, mahalliy sharoitda moslashtirilgan holda amalga oshirilmoqda. Biroq mahalliy amaliyotda baʼzi muammolar ham mavjud: tashkilotlar oʻrtasidagi metodik tafovut, faoliyatdagi kampaniyaviylik, ishtirokchilarning passivligi, va monitoring mexanizmining sustligi. Bu muammolarni hal qilish uchun muvofiqlashtiruvchi markazlar, doimiy pedagogik treninglar va feedback (aloqa) tizimining yoʻlga qoʻyilishi zarur.

Shuningdek, fenomenologik tahlil asosida aniqlanishicha, shaxsda axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati, maʼnaviy refleksiya va ijtimoiy masʼuliyat hissi koʻpincha bevosita tashkil etilgan muhit (maktab, universitet, oilaviy tarbiya, diniy institutlar) sifatiga bogʻliqdir [18, 122-b.]. Bunday muhitlarda mavjud qadriyatlar nafaqat verbal, balki amaliy tajriba orqali oʻzlashtiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Maʼnaviy madaniyatning shakllanishida maʼrifiy tashkilotlar muhim ijtimoiy institut sifatida qatnashadi. Ular shaxsni axloqiy, gʻoyaviy va madaniy jihatdan shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi;

Maʼrifiy makonning barqarorligi, tarbiya jarayonining izchilligi va ongli yondashuv asosida olib borilishi shaxsda maʼnaviy qadriyatlarning mustahkam qaror topishiga xizmat qiladi;

Xorijiy tajribalarning oʻrganilishi Oʻzbekistonda mavjud amaliyotga yangicha yondashuvlar kiritish imkoniyatini yaratadi;

Biroq, mahalliy tizimda mavjud ayrim muammolar – metodik yondashuvlarning xilma-xilligi, monitoringning sustligi, va tashkilotlararo koordinatsiyaning yetarli emasligi – umumiy samaraning pasayishiga olib kelmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar bildiriladi:

1. Ma’naviy-ma’rifiy tashkilotlar oʻrtasida yagona metodik platforma ishlab chiqilishi, bu orqali barcha tashkilotlar uchun umumiy mezon va indikatorlar belgilanishi zarur;
2. Ta’lim muassasalari va ma’naviyat markazlari oʻrtasida uzviy hamkorlik asosida muntazam monitoring va tajriba almashish tizimi joriy etilishi lozim;
3. Pedagog va tarbiyachilar uchun ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilishi zarur;
4. Xorijiy ilgʻor tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirishda selektiv yondashuv asosida milliy qadriyatlar bilan uygʻunlashtirilgan model ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq;
5. Ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirish maqsadida yoshlar ishtirokidagi interaktiv metodlar (forumlar, debatlar, drama-terapiya, aksion tadbirlar) keng joriy etilishi lozim.

Shu tarzda, ma’rifiy tashkilotlar shaxsning madaniy-ma’naviy rivojida muhim strategik rol oʻynaydi va ularning faoliyatini takomillashtirish milliy ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta’sir koʻrsatadi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. PQ–5040-sonli Prezident qarori, 2021-yil 26-mart. – 2-b.
2. Huntington S. *The Clash of Civilizations*, N.Y., 1996. – 45-b.
3. Gʻofurov A. *Shaxs ma’naviy madaniyati va jamiyat*. – Toshkent: Fan, 2021. – 17-b.
4. Gʻofurov A. *Shaxs ma’naviy madaniyati va jamiyat*. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 12–15.
5. Mahmudov H. *Ma’naviy qadriyatlar evolyutsiyasi*. – Samarqand, 2019. – B. 47.
6. Hasanov B. *Ma’rifiy tashkilotlar ijtimoiy ongda*. – Oʻzbekiston falsafasi, 2020. – №4.
7. “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi faoliyati toʻgʻrisidagi nizom. – www.srsl.uz, 2023.
8. Huntington S. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. – N.Y., 1996. – 112-b.
9. Yusupov I., Sobirov D. *Globallashuv va identitet muammosi*. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 91-b.
10. PQ–5040-sonli Oʻzbekiston Respublikasi Prezident qarori, 2021-yil 26-mart.
11. TIIAME. *Axborot-targʻibot ishlari samaradorligi*. – www.staff.tiiame.uz, 2023.
12. Gʻofurov A. Shaxs ma’naviy madaniyati va jamiyat. Toshkent: Fan, 2021. – 45-b.
13. PQ–5040-sonli Prezident qarori. 2021-yil 12-fevral. https://lex.uz/docs/5343585 – 2-b.
14. Yoshlar ishlari agentligi. Ijtimoiy soʻrovlar natijalari. Toshkent, 2023. – 8-b.
15. Oʻzbekiston Milliy universiteti Ma’naviyat markazi hisobotlari, 2023. – 11-b.
16. Erdoğan M. Türk Eğitim Bilimleri Dergisi, 2019, №1(25). – 35-b.
17. U.S. Department of Education. Character Education Program Reports, 2020. – 9-b.
18. Ricoeur P. Sebya kak drugovo. M.: Izdatelstvo GU VShE, 2010. – 122-b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 8 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).